

“FUNUN UL-BALOG‘A” VA “BADOYE‘ US-SANOE” ASARLARIDA ADABIYOTSHUNOSLIK LUG‘ATLARINING IFODASI

Berdiyeva Sabina Zayniddin qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,
4-bosqich talabasi.

berdiyevasabina8@gmail.com

Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,
3-bosqich talabasi.

Sabinabonuqaxramonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” va Atoulloh Husayniyning “Badoye‘ us-sanoe” asarlari tahlilga tortilgan. Mazkur asarlardagi adabiyotshunoslik lug‘atlaridan ayrimlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, bayt, irsol, san‘at, istiloh, masnaviy, ishtiyoq.

Abstract: In this article, the works of Sheikh Ahmad Tarazi “Funun ul-balog‘a” and Atullah Husayni’s “Badoye‘ us-sanoe” are analyzed. Dictionaries related to literary studies in these works have been thoroughly researched.

Key words: ghazal, verse, irsal, art, istilah, masnavi, enthusiastic.

Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari 1437-yilda Ulug‘bek Mirzoga atab yozilgan, turkiy tilda yaratilgan birinchi ilmiy-nazariy asar hisoblanadi. “Funun ul-balog‘a” asari o‘z davridagi adabiy hayot ehtiyoj va talablari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Chunki forsiy tilda she‘r yozadigan iste‘dod egalari aruz vazni, qofiya va she‘riy san‘atlar haqida kitoblar, turli qo‘llanmalar ko‘p bo‘lgan holda, turkiy tilda bunday asar, risolalar yo‘q edi.

O‘zbek adabiyotshunoslik tarixida she‘rshunoslikka doir o‘zbek tilidagi ilk nazariy qo‘llanma bo‘lgan Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (“Yetuklik ilmlari”) asari kirish qismdan tashqari 5 qismdan iborat:



1-qismda: she'ning g'azal, qasida, qit'a, ruboiy, masnaviy, musammat, mustazod, fard va boshqa turlariga keng izoh berilgan.

2-qismda: qofiya va radif masalalari o'rganilgan.

3-qismda: badiiy tasvir vositalari haqida so'z yuritilgan.

4-qismda: aruz vazni tahliliga batafsil to'xtalangan.

5-qism: muammo janriga bag'ishlangan.

Risolada adabiy istilohlarning ma'nosini izohlashda har bir tilga olingan atamaga mos ravishda misol keltiradi. Misollar arab, fors, turkiy tillardagi nasr va nazmiy asarlardan olingan. Asarda jami 91 manbadan misollar keltirilgan bo'lsa, shulardan 84 tasi shoirlarning she'rlari bo'lib, qolgan qismi Qur'oni Karim, Hadisi sharifdan olingan. Shu o'rinda asarda berilgan adabiy istilohlarning izohlanishiga misollar keltirsak:

An-nav'u as-solisu-fi bayonil-qit'a. Qit'a uldurkim, avvalgi misraida qofiya bo'lmas. Va aqalli ikki bayt bo'lur. Va muning ham aksari muqarrar ermas. Har necha kim qofiya tobsalar ayturlar. Taroziy aytur:

Gul yuzungni ko'rgali, ey rashki hur,

Dambadam ko'z yoshi qondin dam urar.

La'lingga nisbat etar o'zin aqiq,

Ul yamanni ko'rki, qondin dam urar.

Misoli digar. Mavlono Lutfiy aytur-qit'a:

Bermagil derlar vafosizg'a ko'ngul,

Kim aning no'shidin ortiq neshi bor.

Men tam kesmasmen, o'lsam, la'lidin,



Jon menga jonim, kishining neshi bor. (

An-nav’-ul xomis fil bayon-i-masnaviy. Masnaviy ikki misra bo‘lur. Ikkalasi muqaffo netokkim manzum qissalarni masnaviy qilibturlar.

Misoli Bu Nasaqdin

Alo, ey husn elining podshohi,

Jamoling oyati lutfi ilohiy.

Yuzungdur lola, qadding sarvi ozod,

Erur usruk ko‘zung joduyi ustod.

Yuzung uzra qaro zulfung balodur,

Tilarmen bo‘lsa ul-yuzdin malo

Raqibi orzular yuzi qiroqin;

Tilar o‘ziga ul yuzi qaroqin. (Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Хазина, 1996, 58-бет)

Asarda Ahmad Taroziy adabiy atamaning izohidan oldin arab tilida qisqacha kirish qism beradi. Istilohning izohiga to‘xtalishda misralar soni, qofiyasi aytiladi, biroq qanday ma’no anglatishi berilmaydi. Izohdan so‘ng misollar keltiriladi.

Badiiy san’atlarning izohini berishda ham shu yo‘ldan boradi, biror san’at haqida aytilganda avval turkiyda bir bayt beriladi. Bu bayt aksariyat holatda Taroziyning o‘z qalamiga mansub bo‘lib, quyida nomi zikr etilajak san’at uchun misol sanaladi. Shundan so‘ng muallif izohi keltiriladi. Ta’riflar deyarli muallif o‘z tilidan aytiladi, bir-ikki holatlardagina boshqa manbalarga murojaat qiladi. Har bir san’at izohidan keyin birinchi bo‘lib turkiy misol keltiriladi. Undan so‘ng o‘rni bilan forsiy va arabiy misollar beriladi. Muallif har bir badiiy tasvir vositasiga



alohida to‘xtalishga, ularni ilmiy izohlashga urinadi. (S.Berdiyeva. O‘zbek va ingliz adabiyotshunoslik lug‘atlarining qiyosiy tadqiqi. 2024, 9-bet)

Ayrimlaridan misollar keltirib o‘tsak:

Al-irsolul-masal. Bu ul bo‘lurkim, she‘r ichinda masal kelturular. Bu ikki qism bo‘lur. Bir qismi ulkim, aningdek masal keltururlarkim, ul masali qadimiy bo‘lg‘ay va xalq arosinda mashxur bo‘lg‘ay. Misoli bukim:

O‘lturur soat manga ayturki: “Yig‘la! Xush kelur”

“O‘chkuga jon qayg‘usi, qassobqa jir bu g‘ame”.

Va bu masal mashxurdir. Misol. Kamol aytur:

Bar la‘li labat jon zi sari shavq fishondin. -

“Sahl ast, vale zira ba Kirmon natvon burd.”

Al-ishtiyoq.

Qilurmen zore, chun vasling tamannosida zor o‘ldum

Qaro zulfung havosinda sabotek beqaror o‘ldum.

Bu san‘at aningtek bo‘lurkim, ikki kalima keltururlarkim, birisi biridin mushtoq bo‘lgay. Misoli digar. Rashid aytur:

Chi bandi chu unnob az obi ayb

Kuluro kilobu liboro labin.

Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida har bir keltirilgan adabiy hodisaga ilmiy yondashib, bir qator misollar bilan izohlaydi. Ahmad Taroziydan keyin mazkur ilmda forsiy tilda Atoulloh Husayniy “Badoye‘ us-sanoe” asarini yozdi. “Badoye‘ us-sanoe” asari adabiyotshunoslikka doir terminlar va ularning izohi berilishi bilan diqqatga sazavor. Mazkur asar debocha, muqaddima, 3 san‘at turi va



xotimadan iborat: debocha kitobning yozilish sababi, muqaddima aruz vazni va zihoflari xususida bo‘lib, 1-bobda 60 ta lafziy san‘at, 2-bobda 63 ta ma‘naviy san‘at, 3-bobda 23 ta lafziy-ma‘naviy san‘at to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Xotima 2 qismdan iborat: birinchisida she‘rning ma‘no bilan bog‘liq illatlari haqida fikr yuritilib, 2-bobda 15 ta atamaga izoh berilgan. Asarda keltirilgan adabiy istilohlarga yuzlanadigan bo‘lsak:

Talmih kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she‘r yoki mashhur maqolg‘a ishorat etmakdin iboratur.

Mashhur qissaga ishorat mundog‘dur (bayt):

Nur-i chashmam, be gul-i ro‘yat ba bo‘ston holi-man,

Gashta hamchun holat-i Ya‘qub dar baytu-l-hazan.

Mashhur nodir she‘rg‘a ishorat mundog‘dur (bayt):

Pesh-i man hosil-i kavnayn buvad yak jav,

Mazra‘-i charx chiro binamu dos-i mah-inav?!

Mashhur maqolg‘a ishora andog‘dur (bayt):

Ashkro dar diyda parvardam base, oxir maro

Kard rusvo-yi jahone, dod nekiyro jazo.

Irsol lug‘atta yubormoqtur. Bir jamoa orasida mashhur bo‘lg‘an va ul jamoa o‘z kalominda turli ishlarga o‘xshatish va misol tarrizda ko‘p zikr qilg‘an doston va hikoyatlarni masal derlar. Aksar baytta masal keltirish, ani mahbub yo mamduh yoki o‘zga kishiga yubormoq uchun bo‘lur, aning uchun bu san‘atni aning arzi e‘tibori bila irsolu -l-masal deb atapturlar.

Irsolu-l-masalayn mashhur qavlg‘a ko‘ra bir baytta ikki masal kelturmaktur, andoqkim (bayt):

Mekasham xoriy-i tu, chun nabuvad gul be xor,



Mebaram ranj-i tu, chun ganj naboshad be mor. (Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадое ус-саное. Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 72-бет)

Badiiy san’atlar izohida dastlab lug‘atda qanday ma’noni ifoda etishini keltirib, so‘ng fors tilida bitilgan she’rlardan misollar beriladi. Asarning so‘nggi bobida 15 ta adabiy atamaga izoh berib o‘tgan, masalan:

G‘azal - lug‘atda xotunlar bila suhbat qurmoqni sevmaktur, istilohta ma’shuq jamolining zikri va ishqu muhabbat ahvolining zikridur.

Atoulloh Husayniy 15 ta atamaga izoh berar ekan, ularning lug‘atdagi ma’nosi va istilohdagi ma’nosiga batafsil to‘xtalib o‘tadi, biroq mazkur atamalarga mos ravishda misollar keltirmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хази́на, 1996
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадое ус-саное. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981
3. Boltaboyev N. Adabiyot ensiklopediyasi. - Т.: Mumtoz so‘z,2015.
4. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати – Т.: Ўқитувчи, 1979
5. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари - Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт,2015
6. Каримов Б. Рухият алифбоси - Т.: Гафур Ғулом,2016.

Research Science and
Innovation House

